

XX ASRNING 70-90YILLARI SAUDIYA ARABISTONIDA TA'LIM
VA MADANIYAT SOHALARIDAGI SIYOSAT

Azimov Komil Sarvarovich

Ilmiy rahbar.

Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Jabborova Zarnigor Farhod qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universitet

Magistratura Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi.

zarnigorjabborova40@gmail.com

Orchid id: <https://orcid.org/0009-0009-1324-0517>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17909309>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi XX asrning 70–90-yillarida Saudiya Arabistonida ta'lim va madaniyat sohalarida olib borilgan siyosiy islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mamlakatda neft iqtisodiyotining yuksalishi bilan bog'liq ravishda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yangi o'quv muassasalarini tashkil etish va madaniy infratuzilmani kengaytirish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, arab va islomiy qadriyatlarga asoslangan davlat siyosatining ta'lim mazmuniga ta'siri, madaniy o'zlikni mustahkamlashdagi o'rni ko'rsatib o'tilgan. Natijada, 1970–1990-yillar davrida amalga oshirilgan islohotlar Saudiya Arabistonining ijtimoiy-madaniy rivojlanishida muhim bosqich bo'lgani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Saudiya Arabiston, diniy konservatizm, savodxonlik, Jidda, ar-Riyod, Makka.

Abstract. This thesis analyzes the political reforms carried out in the fields of education and culture in Saudi Arabia during the 1970s–1990s. The study highlights the processes of educational modernization, the establishment of new educational institutions, and the expansion of cultural infrastructure in connection with the rapid growth of the oil-based economy. It also examines the influence of state policy grounded in Arab and Islamic values on the content of education and its role in strengthening cultural identity. As a result, the reforms implemented between 1970 and 1990 are shown to have played a crucial role in the socio-cultural development of Saudi Arabia.

Keywords: Saudi Arabia, religious conservatism, literacy, Jeddah, Riyadh, Mecca.

Kirish. 1970–1990-yillar Saudiya Arabistoni tarixida ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar davri bo'lib, bu yillarda mamlakatda neftdan keladigan daromadlar hisobiga modernizatsiya jarayonlari boshlandi. Qirollik hukumati ta'lim tizimini rivojlantirishni milliy siyosatning markaziy yo'nalishiga aylantirdi. Shu bilan birga, madaniyat siyosatida diniy qadriyatlarga tayanish va milliy o'zlikni saqlash g'oyasi kuchli bo'ldi.

Asosiy qism. I. Ta'lim siyosatining rivojlanishi 1970–1980-yillarda Saudiya Arabistoni hukumati ta'lim tizimini tubdan yangilashni davlat siyosatining markaziga qo'ydi.

Neftdan olingan daromadlar hisobiga:

- yangi maktablar, litseylar va universitetlar barpo etildi;
- ayollar ta'limi rivojlana boshladi;
- xorijiy o'qituvchilar va mutaxassislar jalb qilindi;
- ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etildi.

1975-yilda Ta'lim vazirligi qoshida Oliy ta'lim kengashi tuzildi, u ta'limni islomiy qadriyatlarga tayangan holda modernizatsiya qilishni nazorat qildi. Shu davrda Riyod universiteti (keyinchalik Saudiya universiteti deb o'zgartirilgan), Jidda va Makka shaharlarida ham yangi oliy o'quv yurtlari ochildi. Ta'lim tizimida arab tili va islom dini asosiy yo'nalish sifatida saqlab qolingani bo'lsa-da, tabiiy fanlar, texnika va tibbiyot kabi sohalarga e'tibor keskin oshdi. Bu Saudiya Arabistonini mintaqadagi eng tez rivojlanayotgan ta'lim markazlaridan biriga aylantirdi.

Statistik ma'lumotlarni ko'rganimizda o'rta maktab bitiruvchilari soni 1970-yildagi 2437 nafardan 1972-yilda 2939 nafarga yetganini ko'rish mumkin. (Tawati, *The civil service of Saudi Arabia: Problems and Prospects*, 1976, p. 182) 1974-yilda Ar-Riyodda yangi maktab tashkil etiladi. Bu davlat mablag'lari tomonidan qo'llab quvvatlangan. 1970-yillarda Saudiyada ta'lim tizimida keng miqyosdagi kengayish boshlandi: birgina 1970–85 yillarda boshlang'ich sinf o'quvchilari soni 192 % ga, o'rta maktab darajasida 375 % ga, maktabdan oldingi (secondary) darajada esa 712 % ga o'sdi (AllahMorad, April 9, 2020, p. 10) 1975-yilda oliy ta'limni boshqarish uchun Ministry of Higher Education tashkil etildi. (*Education in Saudi Arabia*, p. 11) Bu boshqarmaning maqsadlardan biri — analfabetizmni kamaytirish va ta'limni ommalashtirish edi. Misol uchun: 1970-yillarning boshlanishida erkaklar uchun faqat ~15 % darajasida savodxonlik bo'lgan, ayollar uchun esa ~2 % edi. (Al-Rajraji, 2010, p. 19) Shuni ta'kidlash joizki, ko'p o'zgarish va rivojlanishlar bo'lishiga qaramay qizlar ta'limi va ayollarning ijtimoiy faolligi jihatidan ba'zi bir cheklovlar ham kuzatilgan, ayniqsa 1980-yillarda. (Gassem, September 23, 2019, p. 5)

Statistik ma'lumotlar tahlili (pastda 1-rasm)

II. Madaniyat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Madaniyat siyosati Saudiya Arabistonida milliy o'zlikni asrash, islom qadriyatlarini mustahkamlash va davlat birligini mustahkamlash maqsadida olib borildi.

1970–1990-yillarda:

- Madaniyat va axborot vazirligi faoliyatini kengaytirdi;
- milliy muzeylar, teatrlar, kutubxonalar va madaniyat markazlari tashkil etildi;
- arab tili, islom tarixi va adabiyotini o'rganishga qaratilgan ilmiy dasturlar ishlab

chiqildi. 1980-yillarda ommaviy axborot vositalari — radio, televidenie va matbuot — orqali islomiy qadriyatlar va milliy birlik g'oyalari faol targ'ib qilindi. Shu bilan birga, Saudiya Arabistoni Yaqin Sharqdagi boshqa arab davlatlari, shuningdek, AQSh va Yevropa bilan madaniy hamkorlikni yo'lga qo'ydi. (Tawati, *The Civil Service of Saudi Arabia: Problems and Prospects*, 1976, p. 137) ham mumkin. Davlat xizmati to'g'risidagi qonundan so'ng ish haqi tizimida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. 1973-yil avgust oyida hukumat barcha ish haqlarini 15foizga ko'targan. Barcha davlat lavozimlari 6ta asosiy sinfga bo'lingan: Diplomatik, professional, ta'lim, ruhoniylilik, texnik va kasb-hunar. (1973) (Tawati, *The civil service of Saudi Arabia : Problems and Prospects*, 1976, p. 145). Madaniyat sohasida 1980-yillarga kelib san'at va madaniy ta'lim (masalan, san'at fakultetlari) shakllana boshladi – masalan, 1975 va 1977 yillarda san'at ta'limi yo'nalishlari ochildi. (John T.Alexander, Robert A.Divine, John V.Lombardi, 2008, p. 125)

Biroq, madaniyat siyosati murakkab bo'lib, modernizatsiya bilan an'anaviy diniy qoidalar o'rtasidagi muvozanatni saqlashga urinish mavjud edi.

Masalan, madaniy va san'at faoliyati 1970-yillarda kengroq bo'lgan, lekin 1980-yillarda diniy yo'nalish kuchayib, madaniyat sohasida cheklovlar ham paydo bo'lgan. (Wiseman, 2003-03-12-16, p. 10)

Diniy konservatizm va cheklovlar. 1979-yildan keyin diniy ulamolar ta'siri kuchaydi, natijada ayrim madaniy faoliyatlar (musiq, teatr, san'at ko'rgazmalari) cheklab qo'yildi.

Madaniyat sohasida asosiy e'tibor islomiy qadriyatlar, oilaviy an'analar va milliy o'zlikni mustahkamlashga qaratildi. Shu bilan birga, davlat ommaviy axborot vositalarini qat'iy nazorat ostida saqlab, madaniyatni "milliy birlik va e'tiqod asosida" rivojlantirishga intildi. Siyosatdagi muammo va cheklovlar ham mavjud edi. Ta'lim sifatida maktablar soni oshgan bo'lsada, o'quvchilar yetishmasligi bor edi. Bundan tashqari, ayollar ta'lim olgan bo'lsalarda, ijtimoiy faolligi cheklanish holatlari mavjud edi. Madaniyat sohasida konservativ diniy doiralar madaniy hayotni nazorat qilgan, bu esa erkinlikni cheklab qo'ygan.


1970–1990-yillar oralig'ida amalga oshirilgan siyosat natijasida:

- aholining savodxonlik darajasi 30% dan 70% gacha oshdi;
- ayollarning ta'limdagi ulushi keskin ko'paydi;
- Saudiya Arabistoni o'z milliy madaniyat siyosatini xalqaro miqyosda targ'ib eta boshladi;
- ta'lim va madaniyat sohalari mamlakatning modernizatsiya jarayonida asosiy tayanch sohalariga aylandi.

Xulosa. 1970-1990yillar Saudiya Arabistonida ta'lim va madaniyat sohalari davlat siyosatining markazida bo'lgan. Bu davrda mamlakat ta'lim tizimi kengayib, savodxonlik darajasi keskin oshdi, ayollar ta'lim olishi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, diniy qadriyatlar asosidagi siyosat ta'lim mazmuni va madaniyat rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Madaniyat sohasida esa modernizatsiya va konservatizm o'rtasida muvozanatni saqlashga intilish kuzatildi. Umuman olganda, bu yillardagi siyosat Saudiya jamiyatining zamonaviy shakllanishiga zamin yaratgan, ammo ijtimoiy tenglik va madaniy erkinlik masalalarida muayyan cheklovlarni ham keltirib chiqarganini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. AllahMorad, S. (April 9, 2020). Education in Saudi Arabia. *World Education News+Reviews*.
 2. Al-Rajaji, K. (2010). Family Socioeconomic Status and Students' Attainments in Secondary Education in Saudia Arabia., (p. 16). Liverpool.
 3. Education in Saudia Arabia. (n.d.). *Saudipedia*.
 4. Gassem, L. B. (September 23, 2019). Saudi schools in the 1970s: Science, math and moderation.
 5. John T.Alexander, Robert A.Divine,John V.Lombardi. (2008). *The history of Saudi Arabia*. london.
 6. Tawati, A. M. (1976). The Civil Service of Saudia Arabia: Problems and Prospects.
 7. Tawati, A. M. (1976). The civil sevice of Saudi Arabia : Problems and Prospects. p. 137.
 8. Wiseman, A. W. (2003-03-12-16). The Institutional Context of School to work Transtion in Saudi Arabia. *Comporative and International Education society*. new orleans.
- Ilova.



1-rasm. Saudiya Arabistonida savodxonlik darajasi 1970-1990yillar.

- X o‘qi: Yillar (masalan 1970, 1975, 1980, 1985, 1990)
- Y o‘qi: Savodxonlik darajasi (%)
- Ikkita chiziq: Erkaklar va Ayollar